

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov, B.J.Mavlanov, O.T.Mamatqosimov O'zbekistonda <i>Hordeum Bulbosum</i> L. ning hosildorlik ko'rsatkichlari	137
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov <i>Eurydema</i> Laporte, 1833 (Hemiptera: Pentatomidae) avlodining mavsumiy rivojlanishi va ozuqa o'simliklariga ixtisoslashuvi	148
A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov Navoiy viloyati Konimex tumanida <i>Ferula varia</i> (Schrenk) Trautv. ning tabiiy resurslari	153
M.X.Akbarova Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining areal tiplari tahlili	166
X.S.Umurzaqova, G.M.Zokirova <i>Euzophera Bigella</i> Zeller, 1848 (Lepidoptera, Pyralidae) turining morfobiologiyasi.....	172
E.A.Ergashev Osh tuzining turli konsentratsiyali eritmalarida kristallanish tuzilishi va ularning buyrak toshi shakllanishidagi ahamiyati	178
S.Q.Kimyonazarov Markaziy Farg'ona mevali bog'larida uchrovchi barg o'rarlar (Lepidoptera: Tortricidae) haqida	183
E.A.Ergashev So'lak tomchilarining kristallanish zonalarida morfologik elementlar va faza o'zgarishlarining shakllanishi	188

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, A.F.Raxmatov Surxondaryo viloyatini lanshaft turlariga ajratish va uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	193
Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov Farg'ona mintaqasi: iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar	198
J.A.Namozov, M.M.Mirislomov Jahonda ekologik turizm rivojlanishining regional tahlili	210
I.K.Aripov Sirdaryo viloyatidagi botqoqlangan aholi punktlari	216

ILMIY AXBOROT

I.Adashev Bo'lajak pedagoglarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	222
Z.A.Ergasheva Ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlili	228
I.Adashev Informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati.....	232
V.A.Giyosova Murojaatning sotsiologik tabiati	236
D.M.Zaripova Public relations: the key to Enhancing university global rankings and reputation.....	241
A.I.Tuychiyev Sport va turizm jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining asosiy vositasi	248
S.Sh.Rasulov "Qishloq xo'jaligi axborot kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi.....	251
S.A.Rahmonberdiyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronik tadqiqi	255
Q.M.Xakimov Voleybol jamoaviy sport o'yinlarining talabalarda hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar	261
D.M.Azimova Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi.....	264



UO‘K: 811.111

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ТЕРМИНОВ УЧЕТА И АУДИТА****LEXICO-SEMANTIC STUDY OF ACCOUNTING AND AUDIT TERMS****Azimova Dildora Maxmudjonovna** 

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, PhD talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi va audit terminologiyasini o‘rganishda termin va leksemalarning morfologik tasnifi, leksik-semantik xususiyatlari, funksional-semantik xususiyatlari, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikdagi termin tizimlarini tavsiflashda ular qaysi so‘z turkumlariga mansub ekanligini aniqlashga va terminlarni komponentlarga ajratishga harakat qildik.

Аннотация

В данной статье мы попытались определить морфологическую классификацию, лексико-семантические свойства, функционально-семантические свойства терминов и лексем при изучении терминологии бухгалтерского учета и аудита, а также определить, к скольким компонентам их можно разделить и к каким группам слов они относятся при описании термина.

Abstract

In this article, we tried to determine the morphological classification, lexical-semantic properties, functional-semantic properties of terms and lexemes in the study of accounting and audit terminology, as well as to determine which word groups they belong to when describing term systems in modern linguistics.

Kalit so‘zlar: termin, morfologik tasnif, leksik-semantik xususiyatlar, funksional-semantik xususiyatlar, komponent.

Ключевые слова: термин, морфологическая классификация, лексико-семантические признаки, функционально-семантические признаки, компонент.

Key words: term, morphological classification, lexical-semantic features, functional-semantic features.

KIRISH

Ingliz va o‘zbek tillarida buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid termin va leksemalarning morfologik tasnifi, leksik-semantik xususiyatlari, funksionalsemantik xususiyatlari, ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan buxgalteriya hisobi va audit terminlarning mavzuiy jihatdan tipologik tasniflash jarayonlarini, ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid termin va leksemalarning tahlili natijasida ular qaysi so‘z turkumlariga mansub ekanligini aniqlashga harakat qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biz ularning morfologik xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga ajratib, tasniflash lozim deb hisoblaymiz: 1. Ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan ingliz va o‘zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid termin va leksemalar. Misol sifatida quyidagi termin va leksemalarni keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiq. Ingliz tilida: abandonment – tark etish, abstract – hisobot yoki hujjatning qisqacha shakli, acceptor – qabul qiluvchi (vekselni imzolash orqali qabul qiluvchi shaxs), account – hisob, accountability–javobgarlik, accounting – buxgalteriya hisobi, active account – faol hisob, activity – faoliyat, actual cost - haqiqiy xarajat va b. O‘zbek tilida: analitik schot, hisob-kitob, avans, avista, avizo, balans, saldo, baho, talab va taklif, raqobat, pulkredit va b. 2. Fe‘l so‘z turkumiga oid bo‘lgan ingliz va o‘zbek tillari buxgalteriya hisobi va audit terminologiyasiga doir termin va leksemalari. Ularga quyidagi leksik birliklarni misol tariqasida qayd etish lozim. Ingliz tilida: to absorb – singdirmoq, accumulate– jamlamoq, accrete – to‘plash, adjudicate - hukm qilmoq, adjustsozlash (biror narsani yangi sharoitlarga moslashtirish uchun o‘zgartirish, narxlar inflyatsiyaga moslashtirilgan), administer- boshqarmoq, amalgamate-

ILMIY AXBOROT

birlashmoq, amortise- amortizatsiya qilish, assign-tayinlamoq va b. O'zbek tilida: hisoblamoq, tekshirmoq, start bermoq, tugatmoq, yugurmoq, sakramoq, mag'lubiyatga uchramoq, qur'a tashlamoq, raqobatlashmoq va b. 3. Sifat so'z turkumiga oid ingliz va o'zbek tillari buxgalteriya hisobi va audit terminologik birliklari. Ushbu birliklarga quyidagi leksik birliklarni misol sifatida keltirish lozim. Ingliz tilida: accountable – hisobdor, across-the-board – keng qamrovli, active – faol, actuarial – aktuar (aktuar tomonidan hisoblangan mukofotlar, aktuar hisob-kitoblar bo'yicha ishlab chiqilgan), additional- qo'shimcha, aggregate - jami (hamma narsa qo'shilgan holda yig'indisi), annual-yillik, amortisable-amortizatsiya qilinadigan (kapitalni amortizatsiya qilish mumkin), bankable-ishonchli (bank tomonidan kredit garovi sifatida qabul qilinishi mumkin), va b. O'zbek tilida: mohir, ayyorona, qo'qqisdan, chetlashtirilgan, professional, yuqori ko'rsatkichga ega, tezkor, shiddatli, hujumkor, va b. 4. Ravish so'z turkumiga mansub ingliz va o'zbek tilidagi buxgalteriya hisobi va audit terminologik birliklari. Ularga quyidagi leksik birliklar kiradi. Ingliz tilida: above-the-line -yuqoridagi (foyda yoki zararga hissa qo'shgan mablag'larning kelib chiqishini ko'rsatadigan yozuvlarni uni taqsimlash bilan bog'liq bo'lganlardan ajratib turadigan chiziq ustidagi kompaniyaning foyda va zarar hisobidagi yozuvlarni tavsiflash uchun ishlatiladi), below-the-line - chiziq ostida (davlat byudjetining daromad moddolari bilan bog'liq), after tax - soliqlardan keyin, approximately-taxminan, at call - darhol mavjud, at sight - ko'rishda (darhol to'lanishi kerak bo'lgan veksel taqdim etilganda) va b. O'zbek tilida: mohirona, ayyorona, qo'qqisdan, professional, tezkor, shiddatli, hujumkor, raqobatbardosh va b. Ingliz va o'zbek tillari buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid termin va leksemalarning tadqiq qilish jarayonida asosiy komponentlarni morfologik jihatdan qo'llanilishiga asosan, buxgalteriya hisobi va audit termin-birikmalarini quyidagi ikki guruhlarga ajratishni joiz deb bilamiz: 1. Ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid otlashgan termin va so'z birikmalari. Ingliz tilida: accounting error, accounting standard, accounting system, accounting software, accounting fees, accounting profits, accounting entity, accounting cycle, accounting principles va b. Ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid fe'llashgan termin va so'z birikmalari. Ingliz tilida: to add up, add up to, to assess damages, to authorize payment, balance off, to make a bargain, to make a cash bid, to bid for something va b. O'zbek tilida: bozor iqtisodiyotiga o'tmoq, budjetlashtirish, hisob-kitob qilmoq, soliq to'lamoq, sug'urta qilmoq, daromad qilmoq, harajatlarni tekshirmoq, ichki mablag'larni jalb qilmoq va b. Shuni alohida ta'kidlash joizki, termin birikmalarni struktur-semantik xususiyatiga ko'ra bir nechta turlarga ajratish mumkin. Shu ma'noda, tarkibidagi komponentlarning soniga ko'ra ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid birikmali terminlarini quyidagi shaklda tasniflash to'g'ri bo'ladi: Ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid ikki komponentli termin-birikma shaklidagi birliklar. Ingliz tili: associate company, current year, credit squeeze, credit bank, annual meeting, hidden economy, parallel economy, shadow economy, black market va b. O'zbek tilida: audit programmasi, auditdagi baholash, auditorlik nazorati, buxgalteriya balansi, buxgalteriya provodkasi, buxgalteriya yozuvi va b. Ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid uch komponentli birikma terminlar. Ingliz tilida: abusive tax shelter - noqonuniy foydalanilgan soliq boshpanasi (soliq to'lashdan qochish yoki kamaytirish uchun), benefit-cost analysis, bid-offer price, bill of exchange, va b. O'zbek tilida: auditdagi tanlovning ishonchligi, auditning umumiy rentasi, buxgalteriya hisobi registrlari, buxgalteriya hisobi tizimi, buxgalteriya balansining moddolari va b. Ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid to'rt komponentli birikma terminlar. Ingliz tilida: accelerated cost recovery system – xarajatlarni qoplashning tezlashtirilgan tizimi, accounting rate of return, book value per share, book of prime entry, receipts and payments basis va b. O'zbek tilida: auditdagi axborotlarni (konfedetsialligi) maxfiylik, auditdagi amaliy ish mahorati, auditdagi kutilayotgan tanlov xatosi, auditdagi xo'jalik subyektlari bo'limlari, buxgalteriya hisobotining solishtirma ko'rsatkichlari, buxgalteriya balansi moddalarini baholash va b. Ingliz va o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid besh komponentli birikma terminlar. Ingliz tilida: the market has bottomed out, bonus issue capitalisation of costs, classical system of corporation tax, compensation for loss of earn, consolidated profit and loss account va b. O'zbek tilida: auditdagi iqtisodiy subyekt faoliyatini tushunish, auditor xulosasidagi maxsus izoh paragrafi, buxgalteriya hisobotining tarkibiga kirmaydigan ma'lumotlar, buxgalteriya hisobotining taqdim etish sanasi va b. Tadqiqot jarayonida o'zbek tili buxgalteriya hisobi va audit sohasida qo'llaniladigan olti, yetti va sakkiz komponentli birikma terminlarni ham aniqladik. Ingliz tilida: cash-flow-to-total-

debt ratio, cash-to-current-liabilities ratio, charge by way of legal mortgage va b. O'zbek tilida: aholi takror paydo bo'lishining netto koeffitsenti, buxgalteriya hisobotining jiddiy ravishda buzib ko'rsatilishi, buxgalteriya hisobotiga ta'sir qiladigan dalillar va hodisalarning aniqlanishi, auditorning oliy o'quv yurtidan keyingi professional ma'lumoti, buxgalteriya hisobi va auditda ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash, buxgalteriya hisobotidagi xato kamchiliklar aniqlanganda auditorning harakati va b.

XULOSA

Ingliz va o'zbek tillaridagi leksik-semantik tushunchaning tilshunoslikdagi o'rnini, shuningdek buxgalteriya hisobi va audit soha terminlarining xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ldik. Yuqorida keltirilganidek, hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-semantik bo'lishidan tashqari, so'z ma'nosi va yasalishi ham alohida soha sifatida o'rganilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Иқтисодий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. Тошкент — 2021
2. S.M.H. Collin Dictionary of accounting fourth edition
3. Sitiruyetsya po Revina Yu.N. Kognitivnie issledovaniya v oblasti terminovedeniya. Yekaterinburg, 2013. S. 199.
4. Grinev, S.V. Vvedeniye v terminovedeniye. M., 1993.
5. Novodranova V.F. Terminologicheskoye pole v kognitivnoy strukture uchebno nauchnogo teksta. Diss... kand. filol. nauk. – M., 2004. – 159s.
6. Azimova, D.M. (2016). The real purpose of implementation of distance learning. Молодой ученый, (2), 763-765.
7. Makhmudjanovna, A.D. (2023). The Role of Accounting and Auditing Terminology in the Language System.
8. Makhmudjanovna, A.D. (2023). Approaches to Studying Accounting and Auditing Terms. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(11), 573-576.